

KASBIY KOMPETENSIYANING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA MONITORING TIZIMI

Xalimova Ozoda Ma'murjon qizi

*Namagan davlat Pedagogika inustituti Pedagogika fakulteti
Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lim yo'nalishi 2-kurs magstranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kasbiy kompetensiyaning shakllanish bosqichlari va monitoring tizimini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari usullari haqida fikr mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, pedagog, maxsus pedagogika, majburiyat, bilim, konikma, malaka, kasbiy etika, ijtimoiy, kasb.*

Абстрактный: *В данной статье приводятся мнения о методах формирования и развития компетентности у студентов специального педагогического профиля.*

Ключевые слова: *компетентность, педагог, специальная педагогика, приверженность, знания, знания, компетентность, профессиональная этика, социальная, профессия.*

Abstract: *In this article, opinions are given about methods of formation and development of deontological competence in students of special pedagogy.*

Keywords: *competence, pedagogue, special pedagogy, commitment, knowledge, knowledge, competence, professional ethics, social, profession.*

Kasbiy kompetensiya — bu shaxsning o'z kasbida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlarning birligidir.

Ya'ni, kasbiy kompetensiya — bu insonning o'z kasbini chuqur bilishi, amaliyotda to'g'ri qo'llay olishi va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi demakdir.

Kasbiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari haqida. Kasbiy bilimlarni hayotda qo'llay olishi muhim.

2. Kasbiy ko'nikma va malakalar — bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyati.

3. Kommunikativ ko'nikmalar — jamoa bilan ishlash, muloqot qilish, boshqalarni tinglash va tushuntira olish.

4. Ijtimoiy mas'uliyat — o'z kasbining jamiyat oldidagi ahamiyatini tushunish.

5. Shaxsiy fazilatlar — mas'uliyatlilik, halollik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, intizomlilik

6. O'z ustida ishlash qobiliyati — yangi bilimlarni o'rganish, o'z kasbiy saviyasini doimiy oshirib borish

Kasbiy kompetensiya — bu insonning o'z kasbini puxta bilib, uni sifatli va mustaqil bajarish qobiliyati

Kasbiy mas'uliyatni oshirish: Pedagoglar o'z faoliyatini nafaqat bilim va ko'nikmalar bilan, balki axloqiy mas'uliyat bilan ham amalga oshirishi kerak. Kasbiy

kompensiyaning shakllanish jarayoni, bosqichlari va monitoring tizimini rivojlantirishda empatiya va hurmat: talabalarda empatiya va boshqalarga hurmat ko'rsatish muhim axloqiy qobiliyatlar bo'lib, bu pedagoglarning kasbiy kompensiyasining professional muvaffaqiyati va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir qiladi.

Kasbiy kompensiyada axloqiy qarorlar qabul qilish: Kasbiy murakkab vaziyatlarda axloqiy qarorlar qabul qilishda ko'nikmalarni rivojlantirishlari kerak. Kasbiy kompensiyaning rivojlantirishda Pedagogik Ta'limning o'rni pedagogik ta'limda kasbiy kompensiyaning shakllanish bosqichlari va monitoring tizimini rivojlantirish uchun bir qator metodlar va usullar qo'llaniladi: Kasbiy kompetensiyani tajriba asosida o'rganish: Talabalar o'zlarini amaliyotda sinab ko'rishlari va real ta'lim jarayonlarida axloqiy mas'uliyatni his etishlari zarur. Kasbiy etikaga oid ma'ruzalar va mashg'ulotlar: Pedagogik ma'ruzalar orqali talabalar kasbiy etikaga oid bilimlarni o'zlashtiradilar. Etik vaziyatlarni tahlil qilish: Talabalar o'z kasbiy faoliyatlarida turli etik vaziyatlarga duch kelishadi, shuning uchun bu vaziyatlarni tahlil qilish va axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

O'qituvchilarning axloqiy va kasbiy tayyorgarligi: O'qituvchilar o'z kasbiy axloqiy me'yorlarini bilib, ularni talabalar bilan ta'lim jarayonida amalda qo'llashlari kerak.

Talabalar bilan axloqiy muloqot: Talabalar bilan muloqotda bo'lishda yuqori darajadagi axloqiy va psixologik ko'nikmalarni egallash talab etiladi.

Ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olish: Maxsus talabalar bilan ishlashda ular yashaydigan ijtimoiy va madaniy muhitni hisobga olish muhimdir, chunki bu muhit pedagogning axloqiy qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kasbiy Kompensitaniy rivojlantirish juda muhim.

Refleksiya: Talabalar o'z faoliyatlarini tahlil qilish va o'z ishlarining axloqiy tomonlarini yoritish orqali o'zlarining deontologik kompetentliklarini rivojlantiradilar. Vaziyatli ta'lim: Pedagogik vaziyatlarni o'rganish va ularda axloqiy qarorlar qabul qilish orqali talabalar axloqiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

Kasbiy etikaga oid treninglar: Pedagoglarga maxsus etik treninglar tashkil etish va ularga axloqiy mas'uliyatni qanday qabul qilishni o'rgatish deontologik kompetentlikni oshirishga yordam beradi.

Kasbiy kompetensiya — bu insonning o'z kasbini nafaqat bilishi, balki uni yurakdan his qilib, mas'uliyat bilan bajarishidir.

Kompetensiyali inson har qanday vaziyatda yo'l topa oladi. Kasbiy kompensiyaning shakllanishi va monitoring tizimini rivojlantirish nima uchun muhim deyilsa, Har kuni yangi narsa o'rganish, o'z ustida ishlash — bu kompetensiyani yanada mustahkamlaydi.

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish yo'llari:

-O'z kasbingizni chin dildan sevisht. - Har kuni tajribali ustozlardan o'rganish.

-Yangi texnologiyalarni ish jarayoniga tatbiq etish. - O'z faoliyatingizni tahlil qilish va xatolardan saboq olish. -Jamoada hurmat, sabr va muloqotni rivojlantirish muhim

Xulosa. Pedagogik ta'lim jarayonda kasbiy kompetensiyaning shakllantirish va monitoring tizimini rivojlantirish uchun samarali metodlar va shart-sharoitlar yaratish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida doimiy muloqot va tajriba almashishni ta'minlash zarur.

Takliflar

Kasbiy kompensitaning shakllantirish bosqichlari va monitoring tizimi mi rivojlantirish uchun o'qituvchilar va talabalar o'rtasida ko'proq interaktiv treninglar va seminarlar tashkil etish. Pedagogika ta'limiga kasbiy kompetensiya bo'yicha alohida kurslar qo'shish. Maxsus pedagogik ta'limda axloqiy masalalarni tahlil qilish uchun zamonaviy metodlarni joriy etish.

Shu tarzda kasbiy kompensitaning rivojlantirish, nafaqat o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi, balki ta'lim jarayonining sifatini ham yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tursunov, S. Yo'ldoshev, Q. (2018). Pedagogik kompetensiya va kasbiy mahorat. Toshkent: Fan va texnologiyala nashriyoti-145-bet.
2. "Maxsus pedagogika" P.M. Po'latova Toshkent 2005-yil
3. M.Y. Ayupova. Logopediya Toshkent 2007-yil
4. Mo'minova L. N. Abidova va boshqalar. Maxsus psixologiya-T O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013-yil